

# Zamonaviy Mediamakon Va Harbiy Jurnalistikaning Undagi O'Rni Va Ahamiyati

*Irgashev Toxir Anvarovich*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Bugun zamonaviy tahdidlar, xavfsizlikka qarshi qaratilgan xatarlar urush "qiyofasi"ni o'zgartirib, harbiy harakatlar teatrining ta'sir ko'lami mintaqa, jahon miqyosida kengaymoqda. Bu qaynoq nuqtalar, qizg'in jarayonlar haqidagi axborotga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Urush va ziddiyatlar, qurolli to'qnashuvlarda matbuotning, xususan harbiy OAVning axboriy va kommunikatsiyaviy manipulyatsiya borasidagi cheksiz imkoniyatlaridan samarali foydalangan tomonning qo'li baland keladi, degan qarashlar shakllanayotgani va hayotda isbotini topayotgani natijasida masala yanada dolzarb xarakter kasb etyapti. Bu esa harbiy matbuotning media makondagi o'rni va ahamiyati ortishiga sabab bo'lib, yangi harbiy jurnalistika shakllanishi zaruratini keltirib chiqardi. Qadimda kechgan muhorabalarda axborotning kuchi qahramonlikni ulug'lash, dushmanga yolg'on ma'lumot orqali ta'sir etishda namoyon bo'lsa, keng omma ongiga ta'sir qiluvchi media rivojlana boshlagan XIX asr boshiga kelib global matbuot va global konflikt negizida shakllanmoqda. Ya'ni harbiy matbuot urush va to'qnashuvlarda tobora manipulyativ media sifatida namoyon bo'lib, nazorat va boshqaruvchilik funksiyasi oldinga chiqdi. Media makondagi mana shunday zaruratning tadrijiy rivojlanishi sharoitidan kelib chiqib, mazkur maqolada harbiy jurnalistika oldida turgan dolzarb muammolarga e'tibor qaratiladi, harbiy jurnalist kasbiy faoliyatining huquqiy asoslari, shaxsiy xavfsizligi ta'minlanganligi, ziddiyatli vaziyatlarda axborot olish va tarqatish ko'nikmalari echimi borasida aniq takliflar beriladi. Ularning samarali hal etilishi jahon harbiy jurnalistikasida kechayotgan muhim jarayonlarga integratsiyalashuvimizni jadallashtirishga, yangi O'zbekistonda mudofaa qurilishi va Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasida ijtimoiy axborot sifati ortishiga xizmat qilishi bo'yicha xulosalar chiqariladi.

**Tayanch iboralar:** harbiy jurnalistika; media; armiya; mudofaa; doktrina; Qurolli Kuchlar; kommunikatsiya; manipulyatsiya.

## Kirish

Bugungi kunda harbiy jurnalistikaning mediamakondagi o'rni va ahamiyati ziddiyatli vaziyatlar, harbiy harakatlar, qurolli to'qnashuvlar jarayonida tobora ortib bormoqda. Ushbu maqolada buning sabablari haqida fikr yuritar ekanmiz, o'tgan asrning so'nggi 10 yilligida dunyo murakkab va notinch bir davrga kirgani ko'z oldimizga keladi. Harbiy mojarolar, lokal urushlar, sayyoramizning u yoki bu mintaqasida tinimsiz kechayotgan notinchliklarda mazkur murakkablik ko'zga tashlanadi. Bu, bir tomondan, zamonaviy tahdidlar va xavfsizlikka qarshi qaratilgan xatarlar urush «qiyofasi»ni o'zgartirayotgani, ikkinchi tomondan, yuz berayotgan harbiy harakatlar teatrining ta'sir ko'lami mintaqa, jahon miqyosida kengayayotgani bilan xarakterlanadi. Qarama-qarshiliklar ortib, jahon "asabiy zo'riqish" davrini boshdan kechirayotgan bir paytda hayotning o'zi prinsipial jihatdan yangi harbiy jurnalistika shakllanishi zaruratini, olov ichida kamera, fotoapparat, diktofon ushlab harakat qiladigan, jamoatchilikka voqelikni tezkor, xolis etkazadigan, harbiy sohadan xabardor, favqulodda va ekstremal vaziyatlarda harakatlanish ko'nikmalariga ega jurnalistga ehtiyojni yuzaga keltirmoqda. Demak, harbiy jurnalist sifatida faoliyat olib borish uchun, eng avvalo, yuqorida sanab o'tilgan sifat va ko'nikmalar bo'lishi talab etiladi. Odatda harbiy jurnalist deganda ko'pchilikning ko'z oldiga muayyan idora tomonidan axborot cheklangan sharoitda ishlaydigan, asosan, harbiy idoralarga aloqador

<sup>1</sup> Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi



axborotni tayyorlaydigan va tarqatadigan muxbirlar keladi. Elektron manbalardan olingan ma'lumot umumlashtirilganda:

- armiya bilan bog'liq masalalarni;
- urush va to'qnashuvlarni;
- armiya maishiy hayotini;
- harbiy voqelik va nizolarni yoritadigan;
- armiya, aviatsiya, flotga harbiy harakatlar vaqtida ergashib yuradigan harbiy xizmatchi — harbiy jurnalist, degan javob kelib chiqadi. Bunga asoslanib xulosa chiqarilsa, harbiy jurnalist faoliyatiga bir tomonlama baho berilgan bo'ladi.

Sababi harbiy jurnalist tinchlik paytida ham faoliyat yuritadi. Yuqoridagi ta'riflar esa, asosan, urush va nizolar kechayotgan hududlarda faoliyat yuritadigan jurnalistlarga xosdir. Harbiy jurnalist tushunchasiga jahon media makonida berilgan quyidagi ta'rifdan javob topildi:

1. "Defense journalist" — mudofaa mavzusi bo'yicha jurnalist. Bunga mutaxassislar izoh berib, yirik nashrlarga harbiy mavzuda yozadigan tahlilchilarni "Defense journalist" deb atashgan.
2. "War correspondent" — harbiy muxbir. Bu muayyan mamlakat armiyasi safida xizmat qiladigan, qo'shin bilan birga yuradigan, urush va qurolli to'qnashuvlarni yoritadigan harbiy xizmatchi, xodim.
3. "Hot spot reporter" — qaynoq nuqtalardan material tayyorlaydigan muxbirdir. Har bir davlatning mudofaa sohasidagi siyosatidan kelib chiqib, harbiy jurnalist maqomi belgilanadi.

Masalan, O'zbekiston tinchlikparvar siyosat yuritadi. O'zbekiston boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashmaydi. Harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaydi. Armiyasini faqat mudofaa maqsadida qo'llaydi. Demak, mamlakatning harbiy jurnalisti maqomi ham mana shu siyosiy prinsiplardan kelib chiqib belgilanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, O'zbekistondagi "harbiy jurnalist" tushunchasi "Defense journalist" ga yaqinroq turadi. Ya'ni mudofaa mavzusini yoritadi, mudofaa maqsadlariga xizmat qiladi. "War correspondent" tushunchasini ham mamlakat harbiy jurnalistlariga qo'llasa bo'ladi. Biroq keng doirada talqin etilmaydi. Ya'ni ayrim kuchishlalar tuzilmalar muxbirlariga nisbatan qo'llash mumkin bo'ladi. Bunday idoralarga qarashli OAVdagi jurnalistlar faoliyati mudofaa masalalari targ'ibotiga qaratilgan bo'ladi. Ular jahonda, turli mintaqalarda kechayotgan urushlar, qarama-qarshiliklarga jalb etilmaydi.

Shu sababli faoliyati mohiyatidan kelib chiqilsa, ko'proq "Defense journalist" ga taalluqli bo'lib qoladi. Aslida mazkur 3 ta ta'rif bir-birini to'ldirib, harbiy jurnalistikaga bugungi qarashlarni o'zida aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi qonuni va sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanib, mamlakatimiz harbiy jurnalistiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo'mondonining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, shuningdek, mamlakat mudofaasini ta'minlashga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mohiyatini jamoatchilikka etkazadigan;
- mamlakat mudofaa siyosati mohiyatini to'g'ri tushunadigan va jamoatchilikka etkazadigan;
- urush va tinchlik paytida O'zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosati doirasida materiallar tayyorlaydigan; harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlarni anglaydigan va uning mohiyatini OAVda to'g'ri talqin etadigan;
- Qurolli Kuchlarning xavfsizlik va huquq-tartibotni ta'minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashish missiyasini jamoatchilikka tushuntiradigan;



- harbiy mojarolarning oldini olish, hayotiy muhim milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha ijtimoiy fikrni shakllantiradigan;
- harbiy boshqaruv organlarining, Qurolli Kuchlarning, urush davri uchun tuziladigan boshqa organlar, muassasalar va maxsus tuzilmalarning harbiy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalarini yoritadigan;
- O'zbekiston Respublikasining suverenitetini, hududiy yaxlitligini, aholisining tinch hayoti va xavfsizligi himoya qilinishini ta'minlovchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiyhuquqiy, tashkiliy va boshqa tUSDagi chora-tadbirlarni yoritadigan;
- odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'ligi yoki atrofmuhitga zarar etishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar haqida o'z vaqtida aholiga xolis va tezkor axborot beradigan;
- fuqarolarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularda Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning shaxsiy tarkibini ma'naviy-axloqiy va psixologik jihatdan samarali tayyorlash borasidagi ishlarni keng yoritadigan;
- axborot olish va tarqatishda harbiy sirlar va davlat sirlariga amal qiladigan mutaxassis — harbiy jurnalistdir.

Bu ta'rif ham mamlakatda harbiy jurnalistlar mudofaa maqsadlarida xizmat qilishini, ya'ni "Defense journalist"ga aloqadorligini isbotlaydi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda harbiy jurnalist: • mudofaa mavzusida materiallar tayyorlovchi; • urush va nizolarni yorituvchi; • qaynoq nuqtalardan, ekstremal vaziyatlardan material tayyorlaydigan mutaxassis.

Mazkur maqolada harbiy matbuotning axborotni ijtimoiy fikrga etkazishdagi ahamiyati, harbiy muxbir kasbiy faoliyatining o'ziga xosliklari, xususan, ekstremal vaziyatlardagi shaxsiy xavfsizligi, harbiy to'qnashuvlar sharoitida axborot olish va tarqatish ko'nikmalari bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi.

### Asosiy qism

Ijtimoiy axborot almashinuviga bo'lgan ehtiyoj sababli dastlabki OAV ko'rinishlari, jumladan, varaqa va gazetalar paydo bo'la boshlagan davr shuni ko'rsatadiki, aksariyat matbuot nashrlari hukmdorlar tomonidan chop etilib, ularning manfaatiga xizmat qiladi. «Bu matbuot nashrlari kishilarning axborotlarga bo'lgan ehtiyoji bilan birgalikda o'sha zamon hukmdorlarining ijtimoiy-siyosiy manfaatlari natijasida vujudga kelgan.

Jahon matbuotshunosligi yakka shaxslar hukmronligini qo'llab-quvvatlovchi bunday matbuotni avtoritar matbuot deb nomlaydi», deb yozadi filologiya fanlari doktori, professor M. Xudoyqulov. Masalan, 1621 yilda Buyuk Britaniyaning "Weekly News" nomli ilk gazetasi chop etilishiga Fransiya bilan bo'lib o'tgan 30 yillik urush (1618-1648 y) sabab bo'ladi. Rossiyada Pyotr I ning 1702 yil 16 dekabrda farmoniga muvofiq, "Vedomosti" gazetasiga asos solinishga ham urush sababdir. Qurolli to'qnashuv, urushlar bilan bog'liq axborotni ijtimoiy fikrga etkazgan bunday nashrlar avtoritar matbuotga xos bo'lgan. Harbiy jurnalistikaning axborot berish bilan bog'liq ahamiyati matbuot rivojlanishining ilk davrlarida hukmdorlar, shaxslarning ijtimoiy-siyosiy manfaatlari bilan o'lchanadi.

Tarix fanlari nomzodi D. Gujvaning yozishicha birinchi jahon urushida rus armiyasining axborot ta'minoti qurolli kurashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Matbuotning muhim axborot va targ'ibot vositasi sifatidagi o'rniga davlat alohida ahamiyat qaratadi. Davlatlar, jamiyatlar shakllanishida omma ruhiyatini boshqarishga bo'lgan zarurat, ayniqsa, urush va harbiy harakatlar jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi jahon urushida shu sababli ruslar matbuotning axborot va kommunikatsion manipulyatsiya borasidagi ulkan imkoniyatiga tayandi. Ya. Giricheva, A. Zolotarevaning Saratov milliy tadqiqot davlat universiteti saytida berilgan maqolasida keltirilishicha, 1941 yilning avgustida, ya'ni ikkinchi jahon urushi boshidayoq fashistlar bosib olingan hududda gazetalar chiqara boshlaydi. "Orlovskie izvestiya" (keyinroq "Rech" deb nomlangan), "Smolenskiy



vestnik”, “Novyy put” (Klinsky), “Novaya jizn” (Roslavl), “Novoe vremya” (Vyazma), “Belorusskaya gazeta” shular sirasidan. 1942 yilda “Kolokol”, 1943 yilda “Za svobodu” (Smolensk), “Zarya” (Berlin), “Dobrovoles” kabi gazetalarni rus va ukrain tillarida nashr etadi.

1942 yilda SSSR kommunistik partiyasining targ‘ibot va tashviqot boshqarmasi “Harbiy muxbirlar faoliyati to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlab, harbiy jurnalistlar uchun axborot-targ‘ibot xarakteriga ega vazifalarni belgilab beradi. Natijada frontda matbuot orqali targ‘ibotga katta kuch safarbar etiladi. Ittifoq Qurolli Kuchlarida harbiy talablardan kelib chiqqan holda ommaviy ravishda gazetarlar chop etila boshlanadi. Ya. Giricheva, A. Zolotarevalarning keltirib o‘tishicha, 1942 yilning oxiriga borib 4 ta markaziy, 13 ta front, 60 ta armiya, 33 ta korpus, 600 ta divizion va brigada gazetalari chiqariladi. Harbiy matbuotning qurolli to‘qnashuvlardagi ahamiyatini birgina ikkinchi jahon urushi misolida olib qaraydigan bo‘lsak, 1944 yilda frontda 800 ga yaqin gazeta chop etilib, bir martalik tiraji 3 milliondan ortiq nusxada tarqalgani bilan bog‘liq ma‘lumot tasdiqlaydi.

Axborot orqali inson ongiga, qarashlariga ta‘sir o‘tkazish, fashizm ustidan g‘alaba qozonishga ruhlantirish maqsadida ijtimoiy manipulyatsiyaga sobiq ittifoq katta kuch tashlaydi. Kompartiyaning Markaziy qo‘mitasi (SK VKP(b)) 1942 yil 13 avgustdagi qarori bilan gazetaga jamoatchi muxbirlarni jalb etishni har bir harbiy muxbirning to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiyati sifatida belgilab beradi. Masalan, 1943 yilning avgustida «Krasnyy Baltiyskiy flot» gazetasiga 575 ta xat kelgan bo‘lsa, undan 89 tasi chop etiladi. 1943 yilning dekabrda esa tahririyatga 700 ga yaqin xat kelib, 150 tasi chop etiladi. Harbiy muxbirlar askar maktublari orqali mafkuraviy talabni partiyaviylik tamoyili asosida bajarishga kirishadi. Ijtimoiy fikrga matbuot, xususan, harbiy matbuot orqali kuchli ta‘sir o‘tkazishda, targ‘ibotni har tomonlama kuchaytirishda fan, madaniyat, san‘at arboblariidan ham unumli foydalaniladi. Masalan, «Qizil O‘zbekiston» gazetasida G‘afur G‘ulomning “Sen etim emassan”, Maqsud Shayxzoda, Amin Umariy, Temur Fattoh she‘rlari, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Chustiyning “Ulug‘ Vatan urushi jangchilariga o‘zbek xalqidan xat” maqolasi, Halima Nosirovaning “Dushmanga nafrat va qahrg‘azabimiz yana qattig‘roq bo‘lsin” maqolasi chop etilib, ularda xalqni g‘alabaga ruhlantirish, front ortida mardonavor mehnat qilish, sadoqat, matonat, jasoratga chorlashga e‘tibor qaratiladi.

Harbiy matbuotning mediamakondagi o‘rni urush va qurolli to‘qnashuvlar sharoitida qanchalar muhim ekanligini harbiy jurnalistika shakllanishining o‘ziga xosliklari aks etgan tarixiy davrlar orqali ham bilib olsa bo‘ladi. Qadimda kechgan muhorabalarda axborotning kuchi qahramonlikni ulug‘lash, dushmanga yolg‘on ma‘lumot orqali ta‘sir etishda namoyon bo‘lsa, keng omma ongiga ta‘sir qiluvchi media rivojlana boshlagan XIX asr boshiga kelib global matbuot va global konflikt negizida shakllanadi. Ya‘ni harbiy matbuot urush va to‘qnashuvlarda tobora manipulyativ media sifatida namoyon bo‘lib, nazorat va boshqaruvchilik funksiyasi oldinga chiqdi. Filologiya fanlari doktori, professor F. Mo‘minovning “Jurnalistika ommaga ko‘rsatadigan ta‘siri samaradorligini oshiradigan uslublarni izlashda davom etmoqda” degan fikrlarini harbiy jurnalistika tadrijiy rivojida ham kuzatish mumkin.

Bu quyidagi davrlar o‘ziga xosliklarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi:

- birinchi jahon urushida ko‘lami kengaygan targ‘ibot apparati shakllandi hamda qat‘iy senzura yuzaga keldi;
- ikkinchi jahon urushida targ‘ibotni moliyalashtirish va mediani boshqarish mexanizmlari kengaydi. OAV ustidan senzura va nazoratdan harbiy ma‘lumotlarni boshqarishga o‘tildi. Yangi media sifatida radio va kino ommaviy tatbiq etildi;
- Fors ko‘rfazidagi urushda OAVni boshqarish rivojlandi. Axborot va OAVni boshqarish urushni olib borishning ajralmas qismiga aylandi. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, qaysi davr bo‘lishidan qat‘i nazar urush va ziddiyatlar, qurolli to‘qnashuvlarda matbuotning, xususan, harbiy OAVning axboriy va kommunikatsiyaviy manipulyatsiya borasidagi cheksiz imkoniyatlaridan samarali foydalana bilgan tarafning qo‘li baland keladi, degan tushuncha tobora shakllanmoqda. Bu esa harbiy matbuotning media makondagi o‘rni va ahamiyati ortishiga sabab bo‘lyapti.



Harbiy jurnalistlardan faqatgina frontda, qaynoq nuqtalarda kechayotgan voqea-hodisalarni professional nuqtai nazardan yoritish, tahlil qilish, baho berish emas, balki urushayotgan tomonlarni tinchlikka da'vat etish, muammoga jamoatchilik e'tiborini qaratish, bilvosita mediatorlik missiyasini bajarishni zamon talab qilmoqda. Jahon jurnalistikasiga kirib kelayotgan yangicha tendensiyalarni, jumladan, axborot berish va axborot qabul qilish jarayonlarida sodir bo'layotgan jiddiy o'zgarishlarni ham hisobga olish lozim. Internetning jadal sur'atda rivojlanishi, axborot beruvchi sub'ektlar ko'payishi harbiy jurnalistika oldiga ham muhim masalalarni qo'ydi. Bugun axborotni etkazib berish, targ'ibotchi va tashviqotchi rolini bajarish, aksiltarg'ibot faoliyatini olib borish, urushda psixologik operatsiyalarni qo'llabquvvatlash maqsadida axborot boshqarilayapti. Turli qarama-qarshilik, qurolli to'qnashuv, nizo va ziddiyatlar haqida auditoriya ko'proq bilishni, nega bunday noxushlik hamda fojialar yuz berayotganini anglashni istaydi. Urushayotgan tomonlardan iborat harbiy auditoriyaning nafaqat axborotga ehtiyoji, balki undan ko'zlangan manfaatlarini paydo bo'ldi.

Harbiy jurnalist xolis pozitsiyada tura olishi yoki qarama-qarshi tomonlardan birining, urush ortida turgan kuchlarning ta'siri ostida harakat qilishi axborot urushida muhimdir. Buning uchun harbiy jurnalist qaynoq nuqtada bo'lib, voqelikni chuqur o'rganishi, fakt va dalillar yig'ishi, tahlil qilishi, muammoning oqibatlarini, ta'siridan jamiyatni ogohlantirishi talab etiladi. Hozirgi zamonda mediamakonda harbiy jurnalistikaning o'rni OAVning qurolli nizolarni echishda ortib borayotgan roli bilan o'lchanadi. "Bugun rivojlangan davlatlarda tegishli tarzda axborot tayyorgarligisiz hech bir faoliyatni olib borib bo'lmaydi. Urush – adolat, dushman – zolim, o'z jangchilari haqiqiy qahramon bo'lib ko'rinishi talab etiladi", deb yozadi G.Pochepsov. Buning natijasida urushda g'alaba qozonishni istaydigan taraflar axborotni boshqarish, undan targ'ibot qurolli sifatida tobora ko'proq foydalanishga e'tibor qaratmoqda.

Axborot jarayonlarining zamonaviy qurolli to'qnashuvlarga ta'siri jamiyatning muayyan qatlamida siyosiy, mafkuraviy va geosiyosiy qarashlar shakllanuvida ko'zga tashlanadi. Masalan, biron qaynoq nuqtadan tayyorlangan reportaj hali hudud haqida hech qanday taassuroti yo'q aholida qisqa vaqt ichida o'sha mintaqaga bo'yicha geografik, tarixiy, diniy, iqtisodiy, madaniy, etnik va boshqa tasavvurlarni uyg'otib, ko'zlangan siyosiy maqsad bo'yicha muayyan vazifani bajaradi. Shu nuqtai nazardan siyosiy fanlar doktori, professor A.Dugining fikricha, jurnalist (xususan telejurnalist) kasbi geosiyosatchi kasbiga yaqinlashadi. Bugungi zamonaviy jamiyatda mass-media ilgari yordamchi rolinigina o'ynamaydi, balki xalqlarning tarixiy taqdiriga kuchli ta'sir etuvchi kuchli mustaqil faktorga aylanadi. AQShning Yugoslaviya va Iroqda olib borgan harbiy harakatlaridagi axborot ta'minoti yoki axborot urushi dushmani obro'sizlantirish, dushman obrazini yaratishga kuchini sarfladi. G. Pochepsovning yozishicha, Iroq va Yugoslaviyadagi operatsiyalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, axborot urushining asosiy bosqichi AQSh qurollari ustunligi, dushman armiyasining harbiy-sanoat ob'ektlariga va kommunikatsiya vositalariga, shuningdek, tele- va radiostansiyalariga etkazilgan zararni bo'rttirish, yo'qotishlarni yashirishdan iborat bo'ldi. Bunday axborotlar nazorat ostidagi harbiy matbuot markazlari orqali tarqatildi. Ijtimoiy fikrda kerakli stereotipni yaratishga ulgurish uchun kompaniya boshlanishida doimo ulkan resurslar kerak bo'ladi.

Demak, harbiy jurnalistikaning mediamakondagi o'rni va ahamiyatiga, birinchidan, axborot ta'minotidagi roli bilan baho berish talab etiladi. Bular quyidagilarda aks etadi:

- ✓ targ'ibot va tashviqotchilik rolida;
- ✓ axborot-psixologik ta'sir etuvchi rolida;
- ✓ aksiltarg'ibotchi rolida.

Ikkinchidan, ziddiyatli vaziyat, qurolli to'qnashuvlar hududidagi axborotning moddiy va ma'naviy qiymatidan kelib chiqib, yondashish mumkin. Bugun axborot monopoliyasi uchun kurashayotgan global media makonlar, konsern, korporatsiyalar ortida turgan kuchlar manfaati yoki buyurtmasidan kelib chiqib, bu urushlarni oqlash yoki qoralash, aholi ongini manipulyatsiya qilish uchun, tabiiyki, jurnalistlardan foydalanishadi. Urush va mojarolarda xalqaro ijtimoiy fikrga OAV ta'sirining bunday jadal sur'atda o'sib borayotgani nafaqat alohida janglar, balki butun boshli urushga jurnalistikaning ta'siri eta olish qudrati bilan o'lchanmoqda. Filologiya fanlari doktori, professor N. Volkovskiyning



yoʻzishicha, 1991 yilda Fors koʻrfazidagi urushda 1,5 mingga yaqin jurnalist qatnashgan boʻlsa, 1999 yilda Kosovadagi voqealarni 3,8 ming muxbir yoritdi. Biroq boshqa manbada raqamlar bundan kamroq keltiriladi. Yaʼni Fors koʻrfazida toʻrtinchi hokimiyat vakillaridan mingdan ziyod, Kosovada 2 mingga yaqini ishtirok etgani qayd qilingan. 2004 yilda Iroqda AQSh Qurolli Kuchlari 6 mingdan ortiq jurnalistni roʻyxatdan oʻtkazadi. Keltirilgan bu raqamlarda dunyoning tobora oʻzgarib borayotgan bugungi qiyofasi aks etadi. Urushlar, qirgʻinlar, keskinlik va qarama-qarshiliklar oʻchogʻi koʻpayayotgani, keltirib chiqarilayotgani harbiy muxbirlarga boʻlgan ehtiyojni oshirmoqda. Harbiy harakatlar teatrida harbiy muxbirlar ishtiroki ortyapti. Amerikalik jurnalistlar oʻrtasida “CNN Amerika qoʻshinlarining gʻalabasi haqida eʼlon qilmaguncha gʻalaba yoʻq” degan fikr ommalashgani fikrimizni isbotlab, harbiy jurnalistlarning mediamakonda oʻrni bugun qay darajada muhim ahamiyatga ega boʻlib borayotganini koʻrsatadi.

Bundan xulosa kelib chiqadiki, axborot va gʻibrid urushdagi etakchilik, tashabbusni qoʻlga olishga urinish, pirovardida ijtimoiy fikrga kuchli taʼsir oʻtkazish kabi omillar harbiy jurnalistika oʻrni va ahamiyatini oshiradi. Bir davlat ikkinchi davlatni bosib olish, siyosiy hukmronlik oʻrnatish, ichki siyosatini qoralash, ziddiyatlar eskalyatsiyasini keltirib chiqarish, pirovardida urushlar, harbiy harakatlar olib borishda OAVdan ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, jamoatchilik fikri ustidan nazorat oʻrnatish va ommada maʼlum stereotiplarni yaratishdek maqsadlarda foydalanilayotganida yanada yaqqol koʻzga tashlanadi.

Uchinchidan, harbiy jurnalistlarning xavfsizligi bilan bogʻliq masala kun tartibiga chiqadi. Konfliktlar haqidagi toʻliq, xolis, ishonchli axborotni keng jamoatchilikka etkazish harbiy jurnalist uchun qimmatga tushadi. Qarama-qarshiliklar bilan bogʻliq jarayonda demokratiya, inson haq-huquqlariga daxl qilinishi muammosi yuzaga keladi. Harbiy jurnalist nafaqat konfliktni muvofiqlashtiruvchi, urushning oldini oluvchi, balki demokratiya va inson haq-huquqlarini faol himoya qiluvchi rolida ham maydonga chiqadi. Qurolli mojaro tahdid solayotgan jamiyatda harbiy jurnalist koʻplab murakkabliklarga duch kelishini ham unutmash kerak. Urush tufayli nizolashayotgan tomonlarning OAV ustidan nazorat oʻrnatishga boʻlgan doimiy intilishlari muxbir faoliyatiga, xavfsizligiga, hatto hayotiga daxl qiladi. Shu sababli jurnalistika, xususan, harbiy jurnalistika kasbi hayot uchun xavfli sohalar qatoriga tobora kirib boryapti.

Maʼlumki, qurolli toʻqnashuvlar, urush jarayonlarini:

- ✓ harbiy xizmatchi maqomidagi muxbir;
- ✓ harbiy mavzuni yoritishga ixtisoslashgan jurnalist yoritadi.

Misollarga yuzlanadigan boʻlsak, ikkinchi jahon urushiga sobiq ittifoqdagi 800 ta nashrning 10 mingdan ziyod muxbiri yoʻl oladi. Ulardan 1500 nafari halok boʻladi. Afgʻonistonda AQSh boshchiligida aksilterror operatsiyasi boshlangan 2001 yilning 11 noyabrida “Radio France International” muxbiri Joann Syutton (Fransiya), “RTL” radiostansiyasi muxbiri Per Biyo (Lyuksemburg), “Stern” jurnali xodimi Folker Xandloik (Germaniya) Shimoliy alyans qoʻshinlari qurolli otryadi hamrohligida ketayotganda pistirmaga tushib halok boʻlishadi. 2001 yilning 19 noyabrida “Reuters” agentligining xodimlari — teletasvirchi Garri Barton (Avstraliya) va afgʻonistonlik fotomuxbir Azizullo Haydari, shuningdek, “Corriere della Sera” (Italiya) gazetasi muxbiri Mariya Gratsiya Kutuli va “El Mundo” (Ispaniya) jurnali muxbiri Xulio Fuenteslar qurollangan kishilar tomonidan otib oʻldiriladi. 2001 yil 27 noyabrida esa Shvesiya televideniesi tasvirchisi Ulf Stromberg halok boʻladi. Amnesty International tashkilotining 2013 yil boʻyicha keltirgan maʼlumotlariga koʻra, Suriyadagi konfliktida 36 nafardan ziyod jurnalist qasddan oʻldiriladi. Yana bir nohukumat tashkiloti boʻlgan Press Emblem Campaign (PEC) 2016 yilda maʼlum qilishicha, 5 yil urush davomida Suriyada 88 nafar jurnalist oʻldirilgan. Somalidagi fuqarolar urushi faqatgina 2012 yilning oʻzida 16 jurnalistning hayotiga nuqta qoʻydi. Committee to protect journalists jurnalistlarning professional motiv asosida qasddan oʻldirilishi, halok boʻlishining 3 ta jihatiga eʼtibor qaratadi:

- professional faoliyati sababli qasos olish uchun oʻldirilishi;



- harbiy harakatlarni yoritish jarayonida halok bo‘lishi;
- norozilik namoyishlari kabi xavfli vazifalarni yoritishda halok bo‘lishi.

“Committee to protect journalists” ning 1992–2020 yillar bo‘yicha tahlili 309 nafar jurnalistning otishma qurboni bo‘lganini ko‘rsatadi. Mazkur ro‘yxatda Suriyada halok bo‘lgan jurnalistlar nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadi. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, 2018–2019 yillarda dunyo bo‘yicha 156 nafar jurnalist o‘ldirilib, ulardan 67 nafari qurolli to‘qnashuv va nizolar kechayotgan davlatlarga to‘g‘ri keladi. Mazkur nufuzli xalqaro tashkilot bosh kotibi 2020 yil noyabrda murojaatida jurnalistlarning o‘ldirilishi va OAV xodimlariga hujum qilinishini qattiq qoralab, bunday jinoyatlar uchun jazolanmaslikning keng tarqalayotganiga qarshi muvofiqlashtirilgan holda kurash olib borishga dunyo hamjamiyatini chaqirdi. YuNESKO tahlillarida jurnalistlar o‘ldirilishi bilan bog‘liq jinoyatning o‘rtacha 10 foizi bo‘yicha surishtiruv olib borilishi ma‘lum qilingan. Bu muammo nizolar, harbiy to‘qnashuv va ziddiyatli vaziyatlar sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. OAVning, xususan, harbiy muxbirning nizo va qarama-qarshiliklar hududidan oladigan va tarqatadigan axboroti tinchlik o‘rnatilishi, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari himoyasi uchun qanchalar muhim bo‘lsa, uning xavfsizligi muhofazasi ham xalqaro hamjamiyat oldida kechiktirib bo‘lmaydigan masaladir. Harbiy jurnalistikaning global mediamakondagi ahamiyatini yanada anglash uchun OAVda shakllanayotgan yangi trendlarga ham e‘tibor qaratish lozim. Shulardan biri harbiy jurnalistikaga sinonim tarzda “konfliktlar jurnalistikasi” tushunchasining muomalaga kirganidir. Konfliktlar jurnalistikasi deganda urushayotgan tomonlarga fikrini aytish, mojarolar bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish imkoniyatini bergan holda material tayyorlash tushuniladi. Bunda jurnalist xolislik pozitsiyasida turishi talab etiladi. Konfliktlar jurnalistikasida muxbirning majburiyatlarini kanadalik taniqli jurnalist Ross Govard quyidagicha ifodalaydi:

- ✓ konfliktni tushunishi majburiyati;
- ✓ halol yoritish majburiyati;
- ✓ konflikt asosi va sabablarini yoritish majburiyati;
- ✓ inson omilini ifodalash majburiyati;
- ✓ tinchlikka erishish sa‘y-harakatlarini yoritish majburiyati;
- ✓ o‘zining ta‘sirini tan olish majburiyati .

Qurolli konflikt zonasida faoliyat olib boradigan jurnalistning huquq va majburiyatlari xalqaro gumanitar huquqda (yoki qurolli konfliktlarda xalqaro huquq) belgilangan. Mazkur huquq me‘yorlarining katta qismi dunyoning barcha davlatlari tomonidan tan olingan. Bu boradagi eng muhim hujjatlardan biri 1899 yil va 1907 yilda qabul qilingan Gaaga konvensiyasi va deklaratsiyasi (Gaaga huquqi ham deyiladi) hisoblanadi. Shuningdek, urush qurbonlari muhofazasi to‘g‘risida 1949 yilda qabul qilingan Jeneva konvensiyasi hamda unga qo‘shimcha ravishda 1977 yilda qabul qilingan protokol (Jeneva huquqi) ni ham keltirib o‘tish mumkin. Gaaga huquqi urush olib borish tartibi va qoidalariga nisbatan qo‘llaniladi hamda qurol ishlatishga cheklov o‘rnatadi. Jeneva huquqi me‘yorlari esa konfliktlar hududida joylashgan, biroq unda ishtirok etmayotgan tinch aholi, yaradorlar, harbiy asirlar va boshqalarni muhofaza qilishga qaratiladi. “Jurnalistika v usloviyax konflikta: peredovoy opyt i rekomendatsii” kitobida harbiy jurnalistlar huquq va majburiyatlariga alohida e‘tibor beriladi. Ya‘ni qurolli to‘qnashuv zonasida ishlay oladigan va xalqaro gumanitar huquq himoyasi ostida bo‘ladigan jurnalistlar 3 ta toifaga ajratiladi:

- ✓ harbiy muxbirlar;
- ✓ harbiy qismga safarga yo‘llangan jurnalistlar;
- ✓ harbiy konflikt zonasiga xatarli xizmat safari bilan borgan jurnalistlar.

Harbiy asirlarga munosabat to‘g‘risidagi konvensiyaning 4A moddasiga muvofiq, Qurolli Kuchlar bilan birga yuradigan, lekin uning tarkibiga bevosita kirmaydigan fuqaro shaxslar, shu jumladan, harbiy muxbirlar o‘zlari hamroh bo‘lgan Qurolli Kuchlardan belgilangan namunadagi shaxsni



tasdiqlovchi guvohnoma olishi talab etiladi. Demak, mazkur konvensiya talabiga muvofiq, tegishli Qurolli Kuchlardan akkreditatsiyadan o'tgach, harbiy muxbir maqomiga ega bo'ladi. Harbiy muxbirning huquqiy maqomi u hamrohlik qilayotgan harbiy tuzilmaning rasmiy maqomida bo'ladi. Ya'ni akkreditatsiya hujjatini bergan taraf jurnalist xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatni zimmasiga oladi. Jurnalist esa, o'z navbatida, akkreditatsiya qoidasi talablariga amal qilishi shart bo'ladi.

Akkreditatsiya harbiy qo'mondonlikka jurnalist bilan uning kasbi taqozosi bo'yicha hamkorlik qilish majburiyatini yuklaydi. Jeneva konvensiyasining I qo'shimcha protokoliga ko'ra, harbiy muxbir asirga tushganda harbiy asirlar uchun belgilangan barcha huquqlardan foydalanadi. Harbiy qism safariga yo'llangan jurnalist (embedded journalism, "o'rnatilgan (biriktirilgan) jurnalistika" ma'nosini anglatadi) tushunchasi paydo bo'lishini 2003 yilda Iroqdagi urush bilan bog'lanadi. Bunday toifadagi jurnalistlar qurolli to'qnashuvlarda harbiy qismga biriktirilgan holda yangiliklar tayyorlaydigan reportyorlardir. Jurnalist va harbiy xizmatchilarning bunday hamkorligi oldin ham uchrab kelgan bo'lsada, ilk bor 2003 yilda Iroqdagi urushda keng qo'llanildi hamda muomalaga kirdi. Urush boshlanishida 775 nafar reportyor va fotomuxbir harbiy qismga safarga yo'llangan jurnalist sifatida faoliyat olib bordi. Bu toifadagi jurnalistlar qo'shinni xatarga qo'yadigan axborotni (cheklangan axborot) tarqatmaslik bo'yicha harbiylar bilan shartnoma imzolanadi. "The Guardian" nashrining yozishicha, 2002 yil noyabrida, urush boshlanishidan oldin harbiy muxbirlar bilan hamkorlikda mashqlar o'tkazilgandi. Harbiy qismga jurnalistlarni biriktirishdan maqsad haqida to'xtalib, AQSh dengiz piyodalari ofitseri podpolkovnik Rik Long shunday deydi: "Ochiq aytadigan bo'lsak, vazifamiz urushda g'olib bo'lish. Buning muhim qismlaridan biri axborot urushi. Shu sababli biz axborot muhitida etakchilikni qo'lga olishga urinamiz". Bu bilan AQSh, bir tomondan, urushda g'olib bo'lish uchun o'ziga ma'qul bo'lgan axborotni tarqatishni ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, harbiy soha bilan bog'liq konfidensial ma'lumotni muhofaza qiladi. Ammo urush jarayonida bu borada to'liq nazoratni qo'lga olishning imkoni bo'lmaydi. Masalan, "Christian Science Monitor" nashrining muxbiri Filip Smaker AQShning Iroqdagi harbiy tartibini buzgan birinchi jurnalist sifatida huquqidan mahrum qilinadi. Shuningdek, "Fox News Channel" muxbiri Djeraldo Rivera ham harbiylar bilan imzolagan shartnoma talablariga amal qilmay, AQSh qo'shinlari pozitsiyasi va rejalarini fosh qiladi. Oqibatda bu harbiy jurnalist ham guvohnomasidan mahrum etilgan.

Qurolli to'qnashuvlarda harbiy jurnalist faoliyati bilan bog'liq AQSh tajribasidagi o'rnatilgan yoki biriktirilgan jurnalistikadan hukumat yoki harbiy idora qanday manfaat ko'rishi borasida shunday xulosa kelib chiqadi:

- ✓ urushda g'alabaga erishish uchun axborot sohasida etakchilikka intilish;
- ✓ harbiy jurnalistlarni manipulyatsiya ta'sirida ushlab turish;
- ✓ axborotga cheklov o'rnatish;
- ✓ axborotni muhofaza etish;
- ✓ ijtimoiy fikrni o'z haqiqati bilan chalg'itish;
- ✓ harbiy senzura tartibini joriy etish.

O'z navbatida, qurolli to'qnashuvlar jarayonini yoritishda harbiy jurnalist "o'rnatilgan (biriktirilgan) jurnalistika" dan quyidagicha manfaat ko'rishi mumkin:

- ✓ o'zi faoliyat yuritayotgan OAV topshirig'ini bajarishi
- ✓ xavfsizligi ta'minlanishiga erishishi;
- ✓ axborot olishda (konfidensial axborot mustasno) muayyan imkoniyatga ega bo'lishi;
- ✓ harbiy atama va tushunchalarni to'g'ri qo'llashi va h.k. Biroq muxbirning bunday sharoitda axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari bilan bog'liq huquqlariga daxl qilinadi.





Ularni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari mutanosibligi buzilishi;
- axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga daxl qilinishi;
- axborotning buzib talqin etilishi va soxtalashtirilishi;
- jurnalistning axborotdan erkin foydalanishiga daxl qilinishi;
- urush, zo‘ravonlik va shafqatsizlik bilan bog‘liq axborotning bir tomonlama talqin etilishi;
- axborot mulkdorining axborotga qo‘ygan asossiz cheklovlariga amal qilishi.

Ayni paytgacha bunday toifadagi jurnalistlarning aniq huquqiy maqomi belgilanmagan bo‘lsa-da, harbiy qismga safarga yo‘llangani unga akkreditatsiya olish va harbiy muxbir maqomiga ega bo‘lish imkonini beradi. Harbiy konflikt zonasiga xatarli xizmat safari bilan borgan jurnalistlar maqomi 1949 yil 12 avgustda qabul qilingan Jeneva konvensiyasi I qo‘shimcha protokolining “Jurnalistlar” deb nomlangan 3-bobida belgilangan. Mazkur hujjatning “Jurnalistlarni muhofaza qilish chora-tadbirlari” deb nomlangan 79-moddasida qurolli konflikt zonasida xavfli xizmat safarida bo‘lgan jurnalist fuqaro sifatida ko‘rilishi, mazkur maqomga to‘g‘ri kelmaydigan hech qanday xatti-harakatlar qilmaganida va qurolli kuchlarda akkreditatsiyadan o‘tgan harbiy muxbir huquqini suiiste‘mol qilmaganida ushbu konvensiya va unga qo‘shimcha protokol bilan muhofaza qilinishi belgilangan. Bunday toifadagi harbiy jurnalistlar Jeneva konvensiyasi I qo‘shimcha protokolining 2-ilovasiga muvofiq, shaxsni tasdiqlovchi guvohnoma oladi. Mazkur guvohnoma jurnalistga fuqarosi bo‘lgan davlat hukumati tomonidan yoki doimiy yashab turgan hududidan yoxud o‘zi ishlab turgan axborot agentligi tomonidan berilishi mumkin. Yuqoridagi ikki toifa harbiy jurnalistidan farqli ravishda harbiy konflikt zonasiga xatarli xizmat safari bilan borgan jurnalistlarning qurolli to‘qnashuvlar jarayonini yoritishda axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari bilan bog‘liq huquqlariga nisbatan kamroq daxl qilinadi. Negaki, bu harbiy jurnalistlar urushayotgan tomonlar ta’sir doirasida bo‘lmaydi. Harbiy jurnalistikaning ortib borayotgan roli, ahamiyati masalasi jahonda kechayotgan turli nizolar, harbiy to‘qnashuvlardan materiallar tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojiga ham bevosita bog‘liq. Buni ikki omil bilan asoslasa bo‘ladi. Birinchidan, jurnalistika qaynoq nuqtalarda inson haq-huquqlarining faol himoyachisi sifatida maydonga chiqadi. Urush va nizolarni, qurolli qarama-qarshiliklarni yoritish ekan, jurnalist jamoatchilikni bu haqidagi to‘liq, xolis va ishonchli axborot bilan ta’minlaydi. Murakkab, hatto dahshatli sharoitlarda yashayotgan insonlar haqida xabar beradi. Ularning favqulodda, ekstremal, o‘ta xavfli holatlardagi ruhiyatini ochib beradi. Ikkinchidan, axborot urushining taqdiriga ta’sir etuvchi sub’ekt sifatida harakat qiladi.

Mojarolar hududidan tayyorlanayotgan xabar, reportaj, maqolalar auditoriyasi ichida siyosatchilar ham mavjud. Aynan shuning uchun ham ko‘pincha jurnalistlar beixtiyor vositachi rolini o‘ynaydi. Ya’ni siyosatchilar vaziyatni bilish uchun, avvalo, jurnalist reportajini o‘qishi, so‘ngra chora ko‘rish maqsadida axborotdan foydalanishi mumkin. Shu bois jurnalistdan aniq harakat qilish, tarqatilayotgan axborotni tekshirish talab etiladi. Jurnalist shuni yaxshi anglashi kerakki, qurolli to‘qnashuvlar vaqtida hukumatning urush, tinchlik va odamlar taqdiri haqida qaror qabul qilishida OAV muhim rol o‘ynaydi. OAVning har qanday byurokriyani chetlab o‘tib, mamlakat rahbarlariga mavjud vaziyat haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri axborot berish imkoniyati davlatning to‘g‘ri qaror qabul qilishiga va ijtimoiy fikr safarbar etilishiga yordam beradi. OAVning muhim axborot kanali va vositachi sifatidagi o‘rni mana shunda bilinadi.

O‘zbekiston harbiy jurnalistikasi amaliyotida Surxondaryo viloyatida 2000 yilda sodir bo‘lgan voqealar — qurolli to‘qnashuvlar muhim o‘rin egalladi. Qurolli to‘qnashuv, ekstremal sharoitlarda jurnalistlarning harbiy mavzuda materiallar tayyorlash mahorati sinovdan o‘tdi. “Vatanparvar” gazetasi, O‘zA va MTRK muxbirlari voqea joyidan reportaj, xabar, yangiliklar tayyorlab, xalqqa tezkorlik bilan etkazib turildi. Bunday materiallar O‘zbekiston armiyasining kuchi va qudrati, har qanday dushmanga zarba bera olishi, mamlakatning mudofaa salohiyati, fuqarolarda vatanparvarlik tuyg‘ulari borasida sog‘lom fikrlar shakllanishiga, xizmat qildi. O‘zA muxbirlari M. Namozov va



Ch.To‘xtaev, “Axborot” dasturi muxbiri M.Obidov, J. Tursunov, “Vatanparvar” gazetasining harbiy muxbirlari kapitan A. Usmonov, mayor A.Kamalov, podpolkovnik Ya. Korukalarning materiallari orqali O‘zbekiston harbiylarining xalqaro terrorchilarga qarshi kurashdagi jasorati, matonati haqida ma‘lumotga ega bo‘lishdi. Qurolli to‘qnashuv haqida tayyorlangan materiallar voqea haqida qisqa, lo‘nda, yorqin va tushunarli tilda yozilgan. Mazkur xabarlarda O‘zbekiston hukumatining tinchlikni o‘rnatishga qaratilgan aniq pozitsiyasi, xalqaro terrorchilarga qarshi kurashning izchil strategiyasi, kuch tuzilmalarining hamkorlikdagi harakati, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi bir tomon, ijtimoiy ongda mamlakat armiyasi salohiyatiga ishonch, ertangi kunga umid uyg‘otish, qurolli to‘qnashuv hududidagi aholining gumanitar huquqini ta‘minlash masalasi ikkinchi tomonda aks etadi. Shuningdek, qurolli to‘qnashuv haqidagi bunday rasmiy axborot turli mish-mishlarning oldini oladi, vaziyatni barqarorlashtirishga yordam beradi. Bu esa OAVning qurolli to‘qnashuv sharoitida ijtimoiy institut rolini ishonchli ado etganini, konfliktni bartaraf etishda PR faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi. Qurolli to‘qnashuv, ekstremal sharoitlarda harbiy jurnalist samarali faoliyat olib borishi uchun maxsus tayyorgarliklardan o‘tishi bilan bog‘liq muammo bo‘yicha ayrim mamlakatlarda tajriba to‘planadi. Masalan, 2001 yilda Moskva jurnalistlar uyushmasi va Harbiy matbuot assotsiatsiyasi Rossiya Mudofaa vazirligi matbuot xizmati bilan hamkorlikda qaynoq nuqtalarda ishlaydigan jurnalistlarning maxsus tayyorgarligi dasturini ishlab chiqishdi hamda “Bastion” deb nomlangan o‘quv-amaliy kursga asos solishdi. Amaliy mashg‘ulotlarda ehtimoliy inqirozli vaziyatlar modellashtiriladi, turli qurol-aslaha, avtomobil va bronetank texnikalari, maxsus muhandislik imitatsiya vositalari qo‘llaniladi. Dunyoning turli mintaqalarida maxsus harakatlar, qurolli to‘qnashuvlarda ishtirok etgan, ulkan tajriba to‘plagan va yuksak metodik malakaga ega mutaxassislar jurnalistlarga saboq beradi. 7 kun davom etadigan mashg‘ulotlarda jurnalistlarning jangovar harakatlar, ommaviy tartibsizliklar, tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlar jarayonidagi faoliyatining o‘ziga xosliklari muhokama etiladi. Nazariy mashg‘ulotlar poligonda jangovar vaziyatga yaqin sharoitlar modellashtirilgan poligonda kechadi. Turkiyada “Onado‘li” axborot agentligi, Turkiya hamkorlik va koordinatsiya agentligi hamda Turkiya politsiya akademiyasi hamkorlikda harbiy jurnalistika kursini tashkil etgan. 2018 yildagi 12 kunlik kursda Afg‘oniston, Bangladesh, Bosniya va Gersegovina, Filippin, Kamerun, Chernogoriya, Keniya, Niger, Pokiston, Serbiya, Somali, Shri-Lanka va Yamandan kelgan 24 nafar jurnalist tahsil oladi. Bu mamlakatda OAV xodimlarini harbiy jurnalistika sohasida tayyorlash borasida xalqaro tizim shakllanganini ko‘rsatadi. Bunday mashg‘ulotlar turli qarama-qarshiliklar, harbiy nizolar keskinlashuvi sharoitida, ekstremal va favqulotda vaziyatlarda harbiy jurnalistning axborot olish samaradorligini, faoliyati xavfsizligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi.

## Xulosa

Globalashuv jarayonida harbiy jurnalistikaning mediamakondagi ahamiyati va o‘rni axborot ko‘lami hamda telekommunikatsiyalar tarmog‘ining auditoriyaga ta‘siri, jamiyatda axborotning o‘rni tobora ortib borayotgan, nizo va qurolli to‘qnashuvlarda axborotni boshqarish, undan targ‘ibot quroli sifatida foydalanishga harakat qilinayotgan, OAVning kommunikatsiyaviy manipulyatsiya imkoniyati muammoga yo‘naltirilayotgan bugungi davr sharoitidan kelib chiqib belgilanadi. Ikkinchi tomondan olib qaraganda, mazkur muammo qurolli to‘qnashuv, ekstremal sharoitlarda, ya‘ni inqirozli holatlarda harbiy jurnalist kasbiy faoliyatining huquqiy asoslari hamda shaxsiy xavfsizligi ta‘minlanganligi, ziddiyatli vaziyatlarda axborot olish va tarqatish ko‘nikmalari shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Jahon mediamakonidagi bunday tendensiyalar O‘zbekistonda milliy armiya qurilishi va rivojlanishini davom ettirish bo‘yicha belgilangan istiqbolli yo‘nalishlar, milliy xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi izchil strategiya, sohada yangilanishlarni, islohotlar mazmun-mohiyatini jamoatchilikka keng targ‘ib etish zarurati mamlakatda harbiy jurnalistikani rivojlantirishda muhim vazifalarni oldimizga qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, avvalo harbiylashgan idoralar faoliyatining shaffofligini ta‘minlash maqsadida konfidensial xarakterga ega bo‘lgan axborotlar toifasini aniq belgilash va urush hamda tinchlik sharoitida axborotni muhofaza qilishning idoralararo muayyan tartibini takomillashtirish talab etiladi. Bu, bir tomondan, kuchishlalar idoralardan axborot olish samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, axborotni muhofaza etish tamoyilining yanada mustahkamlanishini ta‘minlaydi. Ekstremal vaziyatlarda, urush va qurolli to‘qnashuvlar, ommaviy tartibsizliklar sharoitlarida bo‘lg‘usi harbiy muxbirlarning, shuningdek, harbiy sohani yoritishga



ixtisoslashgan jurnalistlarning amaliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish navbatdagi muhim masalalardandir.

Shu maqsadda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti harbiy tayyorgarlik markazida harbiy jurnalistika yo'nalishida malaka olayotgan kursantlar uchun o'qish yakunida harbiylashgan tuzilmalar ta'lim muassasalari, poligonlarida 3–5 kunlik amaliy mashg'ulot uyushtirilishi maqsadga muvofiq. Mazkur mashg'ulotlar uchun xalqaro gumanitar huquq hamda zamonaviy harbiy harakatlar teatri talablaridan kelib chiqqan holda o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish harbiy jurnalist amaliy faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon harbiy jurnalistikasida kechayotgan muhim jarayonlarga integratsiyalashuvini jadallashtirishga, yangi O'zbekistonda mudofaa qurilishi va Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasida ijtimoiy axborot sifati ortishiga xizmat qiladi. Mamlakat mudofaasi sohasidagi ijtimoiy axborot vatan himoyasi masalasida jamoatchilik ongi o'sishida, ijtimoiy faoliyatni boshqarishda, jamoatchilik fikri shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida:

- milliy xavfsizlikni ta'minlashga doir prinsiplar va yondashuvlar ishlab chiqilishida va amalga oshirishida ijtimoiy faollik ortadi;
- davlatning mudofaa sohasidagi siyosati ustuvorliklari asosiy prinsiplari va yo'nalishlari belgilanishida jamoatchilik nazorati kuchayadi;
- harbiy sohada davlat xavfsizligiga bo'lgan tahdidlardan himoyalanganlik darajasi yanada ortadi;
- harbiy jurnalistikada ixtisoslashuv masalasi yanada takomillashadi, axborot-kommunikatsiya makonida O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, mustaqilligiga, hududiy yaxlitligiga qarshi qaratilgan hamda aholining tinch hayotiga tahdid soluvchi mafkuraviy va psixologik harakatlarning oldi olinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Айнутдинов. А. К. Летопись подвига. — Казань: Татарское книжное изд-во, 1984. — 110 с.
2. Волковский Н.Л. Журналистика в информационных войнах: Исторические истоки и современные тенденции: автореферат дис. ... доктора филологических наук. — Санкт-Петербург, 2003. — 37 с. <https://search.rsl.ru/ru/record/01003234264>
3. Газетов. В. И. Служба PR в вооружённых силах США // Власть. — 2009. — № 7. — С. 147–148
4. Дугин. А. Основы геополитики. — Москва, 1999. — 451 с.
5. Мўминов. Ф. Журналистика социологияси ва психологияси. — Тошкент: Ўзбекистон. 2019. — 282 б.
6. Почепцов.Г, Психологические войны. — М.: Рефл-бук; К.: Ваклер, 2000. — 528 с. — URL: <https://www.twirpx.com/file/458537/>
7. Санников. Н.А. Партийное руководство печатью Советского Военно-морского флота (1941-1945 г.г.). — URL: [https://rusneb.ru/catalog/000200\\_000018\\_rc\\_197690/](https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_rc_197690/).
8. Журналистика конфликта. Пособие Росса Говарда, изданное организацией, Международная поддержка медиа (International Media Support (IMS) и IMPACS. — URL: <http://www.mediasupport.org/wpcontent/uploads/2012/11/ims-csj-handbook-2004.pdf>
9. Журналистика в условиях конфликта: передовой опыт и рекомендации: Пособие с рекомендациями для работников СМИ. — К.: «Компания ВАИТЭ», 2016. — 118 с. — URL: <https://www.osce.org/files/f/documents/1/9/260646.pdf>

